



SADOQATTA TENGSIZ ZULFIYAXONIM

Erkaboyeva Gulbaxor

**Andijon tuman 3-son kasb hunar maktabi ona tili va adabiyoti
o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10814118>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 9-mart 2024 yil
Ma'qullandi: 11-mart 2024 yil
Nashr qilindi: 13-mart 2024 yil

KEY WORDS

Zulfiyaxonimning hayoti, ijodi, she'rlari, sadoqati, bilimi, kuchi, jasorati, Zulfiya mukofoti, taqdir zarbalari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mashhur shoira, sadoqat timsoli bo'lgan Zulfiyaxonimning hayot va ijod yo'li, hayotning unga bergan zarbalari to'g'risidavso'z yuritildi.

Jurnalist, shoira, jamoat arbobi, tarjimonlik kabi ko'pdan ko'p sohalarda ijod qilgan mashhur Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-mart kuni Toshkentning O'qchi mahallasida hunarmand-ishchilar oilasida tavallud topgan. She'rga, so'zga, adabiyotga muhabbat unda bolaligida o'lasidagi muhit sababli paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas. Ayniqsa, bunda onasi Xadichabegimning roli katta bo'lgan. O'rta maktab va ayollar pedagogik bilim yurtini a'lo baholarga tugatgan Zulfiya respublikaning turli gazeta jurnallarida faoliyat yuritadi. Ilk she'ri "Men ish qizi" nomi bilan 1931-yili "Ishchi" gazetasida chop etiladi. Havaskor shoiraning bu kabi ilk she'rlari "Yangi yo'l" jurnali, "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarda chop etiladi. Zulfiyaxonim 1938—1940-yillarda Yoshlar va o'smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir, O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri (1941—1950), „O'zbekiston xotin-qizlari“, „Saodat“ jurnali jurnalida bo'lim mudiri (1950—1953), bosh muharrir (1954—1985) bo'lib ishlagan. Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning „Semurg' yoki Parizod va Bunyod“ dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun „Semurg“ pyesasi hamda „Zaynab va Omon“ operasi librettosini yozdi.

1944 yil turmush o'rtog'i Hamid Olimjon avtohalokatda vafot etadi. Shoiraning shoir Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yaratgan "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" va boshqa to'plamlaridan joy olgan she'rlari tuyg'ular, falsafiy umumlashmalar hayotga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'rlar turkumiga kiradi. Zulfiyaning 1947-yilda yozilgan „Bahor keldi seni so'roqlab“ she'ri insoniy muhabbatni haqqoniy tasvirlovchi badiiy pishiq, ta'sir kuchi g'oyat o'tkir she'r bo'lib, bahor kechalarida lirik qahramonning bedor qalbini qiynayotgan hijron nidosidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-

quvvatlash to'g'risida" 1999-yil 10-iyundagi farmoniga binoan ta'sis qilingan. Mukofot 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi. Mukofot Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ikki nafar vakillariga bir yilda jami 28 ta beriladi. Pul mukofoti eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorini tashkil etadi. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalari bo'lgan maktab, litsey, kollej o'quvchilari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilinadi. Mukofot O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasining raisi rahbarlik qiladigan komissiya xulosalari asosida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan har yili 8-mart — Xotin-qizlar kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi

A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov, N. A. Nekrasov, M. Dilboziy, P. Amrita va Bagryana va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan.



Mashaqqatli urush yillari Zulfiyaning iqtidori butunlay ravnaq topadi va o'ta yorqin tus oladi: uning she'rlarida vatanparvarning serg'ayrat ovozi jaranglaydi, Vatani mustaqilligi uchun qo'lga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta'minlayotganlarga nisbatan lirik iliqligi seziladi. "Uni Farhod derdilar" she'rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g'alabaga ishonch ifodalangan. G'animga qarshi kurashga chorlov askar-o'g'il haqidagi ona qo'shig'i, xotini va onasini sog'ingan jasur frontchi, paxlavon eri uchun qayg'urayotgan ayolning qayg'uli xavotiri bilan bog'lanadi.

Vataniga, ona yeriga bo'lgan muhabbati - vatanparvarlikning oliy tuyg'usi bo'lib, harbiy janglarning saodatli yakuniga ishonch bilan birlashadi - bu shunchaki, Zulfiyaning shoirona qalbiga xos o'ylargina emas, balki o'zbek xalqining tabiatiga xos milliy fe'l-atvor qirralari bo'lib, shoiraning she'rlarida yorqin ifodalanadi.

Shoira Vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo'lsa ham: "Axir, baxt ona diyoridaгина tirikdir".

Urush yillaridagi she'rlari yuqori badiiy mahorat, yorqin she'riy timsollar va ohanglar ila qayd etilgan, folklor usullar va xalqona nutq o'zgarishi, odmi adabiy lug'at bilan mujassamligi seziladi. Qoidaga ko'ra, nasriy qahramon front hodisalari, xalqning urushdagi hayoti va undagi jangchilarga nisbatan kutilmagan noodatiy yorqin va aniq munosabatini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Qayumov L. Shoiri Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.
- 2.Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983.
- 3.Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.
4. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. Toshkent: „Yozuvchi“, 2000.



**INNOVATIVE
ACADEMY**